

## O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA 4K MODELINI QO'LLASH

**Abdurazoqova MahliyoXon Mahmudovna**

*Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani 31-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar bilan ishlashda 4K modelini qo'llash hamda innovatsion metodlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning darslarni samarali o'zlashtirishlari uchun interfaol metodlardan foydalanish yo'llari, uslublari haqida tavsiyalar berilgan.

**Аннотация:** в данной статье описывается важность использования модели 4К и инновационных методов в работе с учащимися на уроках читательской грамотности. Также даются рекомендации по способам и методам использования интерактивных методов для эффективного усвоения уроков учащимися.

**Abstract:** this article describes the importance of using the 4K model and innovative methods in working with students in reading literacy classes. Also, recommendations are given on the ways and methods of using interactive methods for students to learn lessons effectively.

**Kalit so'zlar:** pedagogik, interfaol, innovatsiya, modul, tanqid, metod, o'qish, ta'lim tizimi, ijodkorlik.

**Ключевые слова:** педагогический, интерактив, инновация, модуль, критика, метод, чтение, образовательная система, творчество.

**Key words:** pedagogical, interactive, innovation, module, criticism, method, reading, educational system, creativity.

Bu yilgi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim olishmoqda. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish hamda yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

Avval **“4K modeli nima degani?” savoliga javob topsak.** 4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi. Ular:

**Kollaboratsiya:** Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish,



samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

**Kommunikativlik:** O'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadilar.

**Kreativ fikrlash:** Ijodiy fikrlashni va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

**Kritik (tanqidiy) fikrlash:** Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradilar.

Har bir o'quvchi maktabga qadam qo'yar ekan birinchi navbatda o'qishni, yozishni, to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi. Umumiy qilib aytganda savodxonligini oshiradi. O'qish savodxonligi yillar davomida o'zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiyalarida o'z aksini topadi.

O'qish faqat ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolalaikdan o'zlashtiriladigan qadriyat deb hisoblanmay qo'ydi. Chunki bugungi kunda bu qobiliyat shaxsning butun umri davomida turli xil katekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boriladigan bilim, ko'nikma va malakalar, usullar jamlanmasi sifatida ta'riflanadi. O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos hisoblanadi. Birinchi navbatda o'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor berish, jumladan, uning ma'lumotlar tanlash, tushunish, talqin qilish va kitob tanlash, o'qishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Bu yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. 4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda



qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri. Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Shuningdek ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bugunning dolzarb muammolaridan biri ta'lim tizimi sifatini yaxshilash.

O'quvchilarga sifatli ta'lim berish. Buning uchun pedogoglardan interfaolmetodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va o'quvchilarda qiziqishuyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga pedogog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi, o'quvchi qalbiga kirib borishi muhim. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchining soni va imkoniyatlari, moddiy texnik baza sharoiti, o'qituvchining pedogogik mahorati inobatga olinadi.

Interfaol metod-ta'lim oluvchini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metoddir. Metod-grekcha



“metodos” soʻzidan olingan boʻlib, “yoʻl, axloq usuli” degan maʼnoni bildiradi. Faoliyat, harakatning yoʻli, usuli yoki shakli tushuniladi.

Quyida bir qancha metodlar bilan tanishib chiqamiz.

### **“QORA QUTI” METODI**

Taʼlim jarayonida mazkur metodni qoʻllashdan maqsad oʻquvchilar tomonidan mavzuni puxta oʻzlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, maʼlum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- oʻquvchilar juftlikka birlashtiriladi;
- juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch soʻzlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . . )ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;
- oʻqituvchi oʻquvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni toʻgʻri bajargan guruhning bir aʼzosi oʻqituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;
- sinf oʻquvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch soʻzlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . . qanday maʼnoni anglatishini aytadilar);
- toʻgʻri javob bergan oʻquvchi oʻqituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va oʻqituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.


**«Zig-zag» metodi:** Sinf oʻquvchilari 4-7 guruhga boʻlinadilar va guruhlarnomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshiriladi. Oʻquvchilar matnlarni diqqat bilan oʻrganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh aʼzolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh aʼzolari tomonidan toʻldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning oʻquvchilari oʻzlariga topshirilgan matn mazmuni xususida soʻzlab berganlaridan soʻng, matnlar guruhlarga almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlarga tomonidan oʻrganib chiqilgach oʻquvchilar oʻtilgan mavzu boʻyicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning oʻzaro mantiqiy bogʻliqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan gʻoyalar asosida



mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So'ngra o'zlashtirilgan bilimlar asosida o'quvchilarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

**“Muzyorar” metodi:** Muzyorar – muomaladagi to'siqlarni yengib o'tishga va o'zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o'zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

**“Aqliy hujum” metodi:** «Aqliy hujum» biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to'g'ri va ijodiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limda ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada takomillashtiradi. Interfaol metodlar esa - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation.

2. Til va adabiyot ta'limi ( O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligining ilmiy metodik jurnali). 2008 yil

3. Til va adabiyot ta'limi 2019 yil

4. Xalq Ta'limi jurnali 2015 yil

5. Aniq.uz sayti 19.08.2023-yil. <https://aniq.uz/yangiliklar>

